

MADANIY VA TARIXIY KONTEKSTNI TARJIMADA IFODALASH

Dilorom Baxadirova Sultanova

O'qituvchi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola tarjima jarayonida madaniy va tarixiy kontekstni to'g'ri ifodalash masalalarini o'rganadi. Unda madaniy realiyalar, tarixiy davrga xos til va uslubiy xususiyatlarni tarjimaga moslashtirishda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari yoritiladi. Maqolada madaniy farqlarni qamrab olish, o'quvchiga asl asarning hissiy va ma'naviy qiymatini yetkazish strategiyalari tahlil qilinadi. Misollarda mualliflar madaniy ko'rsatkichlar va tarixiy kontekstni tarjima qilishda qaysi usullardan foydalanishi kerakligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari tarjimonlar uchun nazariy va amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Madaniy kontekst, tarixiy kontekst, tarjima muammolari, realiyalar tarjimasi, o'zlashma so'zlar, tarjima strategiyalari, lingvokulturologiya.

Kirish qismi: Tarjima jarayoni nafaqat tillar o'rtasida so'z va iboralarni o'zgartirish, balki ikki xil madaniyat va tarixni bir-biriga bog'lovchi murakkab ijodiy faoliyatdir. Madaniy va tarixiy kontekstni to'g'ri aks ettirish tarjima jarayonining eng muhim, shu bilan birga, eng qiyin vazifalaridan biridir. Har bir badiiy asar o'zida muallifning dunyoqarashi, davrga xos madaniy xususiyatlar, milliy ruh va ijtimoiy tafakkurni aks ettiradi. Ushbu boylukni tarjimada saqlab qolish va o'quvchiga aslyatdagi hissiy va ma'naviy qiymatni to'la yetkazish tarjimonning mahoratiga va yondashuviga bog'liq.

Har bir madaniyat o'ziga xos ko'rinish va mazmuniy xususiyatlarga ega bo'lib, u so'zlar, atamalar, realiyalar va boshqa til vositalari orqali ifodalanadi. Madaniy realiyalar – bu biror xalqning kundalik hayoti, tarixi, urf-odatlar va an'alarini aks ettiruvchi elementlar bo'lib, ular tarjima jarayonida ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. Misol uchun, ma'lum bir xalqning o'ziga xos bayramlari, milliy taomlari yoki tarixiy shaxslarining nomi boshqa madaniyat o'quvchilari uchun begona bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda tarjimon o'quvchi va asar o'rtasidagi bu madaniy bo'shliqni bartaraf etish yo'llarini izlashga majbur bo'ladi.

Tarixiy kontekst esa asarda aks etgan voqealar, davrning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holati bilan bog'liq bo'lib, ularni noto'g'ri tarjima qilish yoki e'tibordan chetda qoldirish asar mazmunini buzilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, tarixiy romanlar, memuarlar yoki davr qahramonlariga bag'ishlangan asarlar tarjimasida bunday nozik masalalar o'ta dolzarb hisoblanadi. Tarjimonda tarixiy faktlar va voqealar faqatgina tarjimonning bilimi emas, balki aniq tadqiqotlar va tahlillar asosida o'quvchiga yetkazilishi lozim.

Maqolada madaniy va tarixiy kontekstni tarjimada ifodalash masalalari chuqur tahlil qilinadi. Bu jarayonda tarjimon duch keladigan qiyinchiliklar, jumladan, madaniy realiyalarni ifodalash, tarixiy davrga xos til vositalarini moslashtirish va o'quvchiga yetkazish strategiyalari yoritiladi. Shuningdek, tarjimada madaniy va tarixiy qatlamlarni saqlab qolishning nazariy tamoyillari va amaliy usullari ko'rib chiqiladi. Maqola nafaqat nazariy jihatdan, balki tarjimonlar uchun amaliy yordam sifatida ham qimmatli bo'lishi mumkin.

Madaniy va tarixiy kontekstni tarjimada aks ettirish nafaqat muallif va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi, balki turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasida chuqurroq tushunishni shakllantiradi. Shu bois, bu masalani chuqur o'rganish va tahlil qilish zamonaviy tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Madaniy kontekstni tarjimada to'g'ri aks ettirish, asarning mazmunini saqlash bilan birga, uni boshqa madaniyat vakillariga tushunarli va qabul qilinadigan qilib yetkazishni talab qiladi.

Madaniy realiyalar, ya'ni muayyan madaniyatga xos bo'lgan atamalar, hodisalar, urf-odatlar va boshqa elementlar, tarjima jarayonida eng ko'p muammo tug'diruvchi unsurlardan biridir. Masalan, o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan "palov" yoki "beshik-to'y" kabi tushunchalar boshqa madaniyat o'quvchilari uchun begona bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tarjimon ushbu elementlarni asliyatga yaqinroq tushuntirish yoki mos ekvivalent orqali ifodalash yo'llaridan birini tanlashi lozim.

Madaniy realiyalarni tarjimada aks ettirishda quyidagi asosiy yondashuvlar mavjud:

Transliteratsiya va o'zlashma so'zlar: Madaniy realiyalarni asl shaklda qoldirish orqali ularni o'quvchiga begona emas, balki yangi madaniy tushuncha sifatida kiritish. Masalan, o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinganda "beshik" so'zi "cradle" deb emas, "beshik" tarzida transliteratsiya qilinib, izoh bilan tushuntirilishi mumkin.

Izohli tarjima: Realialarni tarjimada qisqacha tushuntirish orqali ularning ma'nosini o'quvchiga yaqinlashtirish. Masalan, "navruz"ni "Bahorgi yangi yil bayrami" deb ifodalash.

Moslashtirish (adaptatsiya): Realialarni o'quvchiga tanish madaniy ekvivalent orqali yetkazish. Masalan, o'zbek madaniyatidagi "sumalak"ni boshqa xalq uchun tushunarliroq qilib "Spring festival dish" deb atash.

Bevosita tarjima: Realialarni boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilish orqali ularning mazmunini saqlashga intilish. Bu usul ko'pincha realianing madaniy kontekstini yo'qotish xavfini tug'diradi.

Madaniy kontekstni aks ettirishda tanlangan uslub tarjimaning turiga, maqsadli auditoriyaga va asar janriga bog'liq bo'ladi. Tarjimonda asliyatdagi madaniy rang-baranglikni saqlash o'quvchiga boshqa madaniyatni his qilish imkoniyatini beradi.

Tarixiy kontekstni tarjimada saqlab qolish, asarning davriy xususiyatlarini to'g'ri aks ettirish va o'quvchiga davr haqida haqqoniy tasavvur yaratishni talab qiladi. Tarjimonda tarixiy davrga xos til vositalarini, tarixiy shaxslar, voqealar va ularning ma'nosini to'g'ri yetkazish juda muhimdir. Tarixiy asarlarni tarjima qilishda quyidagi yondashuvlarga e'tibor berish kerak:

Davrga xos termin va iboralarni saqlash: Tarjimonda tarixiy davrning ruhini aks ettiruvchi so'z va iboralarni o'zgartirmaslik, ularning ma'nosini izoh orqali tushuntirish. Masalan, o'zbek adabiyotida "bek", "xon" kabi tarixiy unvonlarni asl holatda saqlab qolish.

Tarixiy realialarni izoh bilan yetkazish: O'quvchiga tarixiy voqealar yoki tushunchalarni yaxshiroq anglash uchun ularning tarixiy kontekstini qisqacha izohlash. Masalan, "Qo'qon xonligi" haqida yozilgan asarda xonlikning geografik va siyosiy ahamiyatini izohlash zarur.

Modernizatsiyadan qochish: Tarjimonda tarixiy voqealar va tushunchalarni zamonaviy so'zlar va iboralar bilan almashtirishdan tiyilish, chunki bu o'quvchiga noto'g'ri tasavvur berishi mumkin.

Davr tilini saqlash: Tarixiy davrga mos til va uslubni tarjimada aks ettirish, jumladan, arxaik so'zlar va iboralardan foydalanish orqali o'sha davrning hissiyatini berish. Masalan, qadimgi o'zbek tilidan tarjima qilinganda "jom", "sarpo" kabi so'zlarni ishlatish.

Ko'pincha madaniy va tarixiy kontekst bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, tarjimon bu ikki omilni bir vaqtning o'zida hisobga olishi kerak bo'ladi. Masalan, tarixiy asarda aks etgan voqealar, urf-odatlar va madaniyatni zamonaviy o'quvchi uchun tushunarli, ammo asliyatga sodiq tarzda yetkazish zarur. Bunda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

Madaniy qarama-qarshilik: O'quvchi madaniy farqlarni noto'g'ri qabul qilishi yoki ularni begonalashtirishi mumkin. Bu masala realialarni izoh bilan tushuntirish orqali hal qilinadi.

Tarixiy noto‘g‘ri talqin: Tarjimonda tarixiy kontekstni noto‘g‘ri tushunish yoki noto‘g‘ri aks ettirish asarning mazmunini buzilishiga olib keladi.

Lokalizatsiya muammolari: Maqsadli auditoriya madaniyatiga moslashtirish jarayonida asliyatdagi madaniy va tarixiy xususiyatlarning yo‘qolishi.

Madaniy va tarixiy kontekstni tarjimada ifodalash uchun quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

Tarjimaga qo‘shimcha sifatida izohli lug‘atlar kiritish, bunda madaniy va tarixiy tushunchalar qisqacha izohlanadi.

Asarning muallifi tomonidan keltirilgan tushunchalarni tarjimada saqlab qolish va kerak bo‘lsa, tarjimon tomonidan qisqacha izoh berish: Tarjimonda asliyatga maksimal darajada sodiq qolish bilan birga, o‘quvchi madaniyatiga moslashtirish uchun qulay usullarni qo‘llash; Tarix va madaniyat sohasida bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, bu tarjimada xatoliklarni kamaytiradi.

Tarjima jarayonida madaniy va tarixiy kontekstni aks ettirishning muhimligi, asar mazmunini o‘quvchiga to‘liq yetkazish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat asar sifatini oshiradi, balki turli madaniyatlar o‘rtasidagi tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qismi: Tarjima jarayonida madaniy va tarixiy kontekstlarni to‘g‘ri ifodalash masalasi tarjimonning malakasi va bilim darajasini sinovdan o‘tkazadigan eng muhim jihatlardan biridir. Bu maqolada madaniy va tarixiy kontekstlarning tarjimada tutgan o‘rni, ularni o‘ziga xos xususiyatlari va tarjimon oldida turgan muammolar batafsil o‘rganildi. Madaniy kontekst tarjimada milliy o‘ziga xoslikni saqlash, madaniy qadriyatlarni tushunarli qilib yetkazish va asar ruhini buzmaslik uchun muhim ahamiyatga ega. Tarjimon bir madaniyatda keng tarqalgan, ammo boshqa madaniyat vakillariga notanish bo‘lgan metaforalar, iboralar, tarixiy voqealar yoki ramzlarni tarjima qilishda juda ehtiyotkor bo‘lishi kerak. Tarjima davomida bunday elementlarni tushunarli va qabul qilinadigan shaklda taqdim etish uchun kontekstualizatsiya usullaridan foydalanish zarur.

Tarixiy kontekst esa, asar mazmunidagi vaqtga oid elementlarni to‘g‘ri aks ettirishda muhimdir. Tarjimon o‘z vazifasida tarixiy davrga xos bo‘lgan til, uslub va tafakkurni inobatga olishga majbur. Bu nafaqat asarning mazmunini, balki uning tarixiy qadriyatlarini ham saqlash imkonini beradi. Tarjimada tarixiy haqiqatlar yoki tafsilotlarning buzilishi o‘quvchi tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Maqolada, shuningdek, madaniy va tarixiy kontekstni tarjimada aks ettirishning ikki asosiy yondashuvi – “xoriylashtirish” va “mahalliyashtirish” usullari ko‘rib chiqildi. Xoriylashtirish usuli o‘quvchini asarning asl madaniyatiga yaqinlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, mahalliyashtirish esa asarni maqsadli auditoriya uchun qulayroq va tushunarliroq qilishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuvlar o‘rtasida muvozanatni saqlash tarjimonning ijodiy yondashuvi va professionalligini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy va tarixiy kontekstlarni tarjimada to‘g‘ri aks ettirish asarning badiiy qiymati, mazmuniy aniqligi va o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishini ta‘minlaydi. Bu esa tarjimonning faqat lingvistik bilimlarini emas, balki madaniyatlararo muloqot qobiliyatini ham rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Tarjima jarayonida madaniy va tarixiy kontekstni hisobga olish orqali, nafaqat matnni, balki uning ruhini va ma‘nosini ham saqlab qolish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Саломов Ф. Таржима масалаларини комплекс ўрганиш тажрибаси // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 4-китоб. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
2. DILOROM BAXADIROVNA SULTANOVA. (2024). BADIY MATNLARNING BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMALARI MUOMMOLARI . Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 21(2), 155–158. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5104>
3. Sadikova, SHIRIN BAXTIYAROVNA. "Concepts of Respect Category and Respect Speech in Uzbek Language." INTERNATIONAL JOURNAL OF TREND IN SCIENTIFIC RESEARCH AND DEVELOPMENT e-ISSN: 2456-6470.
4. Hamidov, X., & Abdullayeva, M. (2024, March). FRAZEOLOGIZMLARNING O‘ZBEKCHA MUQOBIL VARIANTLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 14-21).
5. Sultanova, Dilorom Baxadirovna ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING ESL LEARNERS // ORIENSS. 2023. №22. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/role-of-interactive-methods-in-teaching-esl-learners>
6. Baxadirovna, Sultanova D. "Teaching Students with Learning Disabilities: Perceptions of a First-Year Teacher." International Journal on Integrated Education, vol. 4, no. 3, 2021, pp. 305-307, doi:[10.31149/ijie.v4i3.1443](https://doi.org/10.31149/ijie.v4i3.1443).
7. Baxadirovna, Sultanova Dilorom. “Teaching students with learning disabilities: Perceptions of a First-Year Teacher.” (2021).
8. Makhliyo E. K. Experience Of Translating Historical Novels In Translation Studies //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 06. – С. 84-90.
9. Khabibullaeva M. E. EXPERIENCE IN TRANSLATING HISTORICAL NOVELS IN TRANSLATION STUDIES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 6. – С. 175-181.
10. Teshaboyeva, Ziyodakhon Qodirovna. "A Cognitive Study of “Baburname”’S Translations and Principle of Compiling a Textual Dictionary." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 1994-2006.
11. Begmatova, B. M., & Kasimova, S. S. STUDY OF THE PROBLEM OF PREDICATIVITY AND ATTRIBUTION IN LINGUISTICS.
12. Teshaboyeva, Z. Q., & Bekmuratova, S. M. (2024). Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2(1), 116-121.
13. ABDULLAYEVA, M. (2024). Inglizchadan o‘zbekchaga nasriy tarjimaning milliy-madaniy xususiyatlari (XX asr oxiri XXI asr boshlarida ingliz tilidan bevosita tarjimalar misolida). TADQIQOTLAR.UZ, 50(5), 80-84. <https://scientific-jl.org/tad/article/view/3734>
14. Dilorom Bakhadirovna Sultanova. (2024). Problems of Translation of Historical Works: Past and Present. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 2(12), 16–20. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJRCS/article/view/6281>
15. Abdujabarova, K. H. (2024). Assessing Students’ Reading Comprehension (Journalism as an Example). Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 2(12), 8–11. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJRCS/article/view/6271>